TILNING LUG‘AT BOYLIGINING SISTEMA SIFATIDA TADQIQ QILINISHI

Ixtiyorbek Norov
Nukus davlat pedagogika instituti O’zbek tili kafedrasi fan kabineti mudiri

Leksikologiyada tilning lug‘at boyligi sistema sifatida tadqiq qilinadi, chunki bu boylik so‘zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig‘indisi emas, balki o‘zaro aloqada bo‘lgan, birining bo‘lishi ikkinchisining bo‘lishini taqozo qiladigan lug‘aviy birliklar va elementlar tizimidir, bu tizimdagi so‘z va elementlar yaxlit bir "organizm"ning "to‘qimalari" va "hujayralari" munosabatida bo‘ladi: so‘zlarning ifoda va mazmun tomonlari orasidagi aloqalar, leksik ma’no va uning semalari o‘rtasidagi butun va qism munosabatlari, so‘z ma’nolarining paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari shundan dalolat beradi. Bu tizimning asosiy birligi so‘z ekanligini hisobga olsak, leksikologiyada bevosita so‘zning o‘zi bilan bog‘liq masalalar ham ko‘riladi: so‘zning til birligi sifatidagi mohiyati, so‘z strukturasi (ifoda va mazmun planlari, semantik tarkibi), leksik ma’no va uslubiy semalar, leksik ma’no va etimon, leksik ma’no taraqqiyoti, udual va okkazional ma’nolar shular jumlasidandir.

So‘z tilining eng muhim nominativ birliklaridir, chunki u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-ta’m, hajm-miqdor, xislat kabi belgi-xususiyatlarni nomlaydi: daraxt (predmet nomi), ong (mavhum tushuncha nomi), ishlamoq (harakat nomi), oq (rang-tus nomi), shirin (maza-ta’m nomi), katta (hajm nomi), besh (miqdor nomi) kabi. Tilning lug‘at boyligidagi bunday so‘zlar leksik birliklar sanaladi.

Tilda nomlash xususiyatiga ega bo‘lmagan, binobarin, leksik birlik sanalmaydigan so‘zlar ham bor, ular faqat grammatik yoki modal ma’nolarni ifodalaydi, shunga ko‘ra grammatik so‘zlar yoki morfema-so‘zlar hisoblanadi: yordamchi so‘zlar, modal so‘zlar, taqlidiy so‘zlar, undovlar, olmoshlar shular jumlasidandir.

Tildagi barcha so‘zlarning yig‘indisiga, so‘z jamg‘armasiga vokabulyar deyiladi. Har bir tilning vokabulyaridan munosib o‘rin tutgan so‘zlar doimiy ravishda bir□birlari bilan paradigmatik (o‘xshashlik) va sintagmatik (qo‘shnishilik)

munosabatlarda bo‘lib turadi. Shunga ko‘ra ularni bir necha guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Bir sathga oid til birliklarining ma’lum axborot tashish ushun ketma-ket bog‘lanib kelishi sintagmatik (qo‘shnishilik, ketma-ketlik) munosabat deyiladi.

Leksik ma’no leksemaning nimanidir nomlashi (atashi), anglatishi va ifodalashidir. U quyidagi uch hodisa o‘rtasidagi bog‘lanishdan tarkib topadi: a) fonetik so‘z (leksemaning fonetik qobig‘i, shakli); b) fonetik so‘z tomonidan nomlangan predmet, hodisa, tushuncha (denotat, referent); v) fonetik so‘z tomonidan ifodalangan ma’no (signifikat, u inson ongida denotot haqida shakllangan ma’nodir). Demak, fonetik so‘z predmetni, denototni ataydi (denototiv ma’no), fonetik so‘z inson ongidagi signifikatni ifodalaydi (signifikativ ma’no). Ana shu uchta birlik o‘rtasidagi bog‘lanishdan yuzaga kelgan semantik birlik leksik ma’no sanaladi.

Leksik ma’noning yana bir muhim belgisi shuki, u leksemaning til sistemasidagi boshqa so‘zlar bilan turli darajada aloqaga kirisha olish imkoniyatini (valentligini) ham belgilaydi. Masalan, non va emoq leksemalarining ma’nolari shu ikki so‘zning nutqda birikishini taqozo qiladi ("non emoq" kabi), ammo non va ichmoq leksemalari o‘zaro birika olmaydi, chunki bu ikkala leksemaning ma’nolari, semik tarkibi bunga yo‘l qo‘ymaydi.

Leksek ma’no leksemaning ifoda plani (fonetik so‘z) bilan tarixan bog‘langandir, ammo birdan ma’no va tovushlar o‘rtasida tabiiy bog‘lanish bor degan xulosa chiqmasligi kerak, chunki tovush – ma’nosiz birlik, fizik-akustik hodisa; ma’no esa mavhum umumlashmadir. Tovushlar bilan ma’no o‘rtasida tabiiy bog‘lanma bo‘lganda edi, bir ma’no tilda bitta so‘z bilan ifodalanardi, aslida esa tilda bir ma’noning bir necha so‘z bilan nomlanish hollari ham uchraydi: kulgi va xanda, yolg‘onchi va aldamchi, chelak va satil kabi sinonimlarning birligi buning isbotidir. Demak, leksik ma’no fonetik birliklardan tarkib topgan fonetik so‘zga (yoki bir necha fonetik so‘zga) shu til egasi bo‘lgan jamoa tomonidanbiriktirilgan bo‘ladi. Buni quyidagicha tavsiflash mumkin: borliqdagi narsa-hodisalar sezgi a’zolarimiz orqali ongimizga ta’sir qiladi, natijada inson ongida shu narsa-hodisalarning in’ikosi (obrazi) qoladi, unga nom tarzida biriktirilgan so‘zning shakli ham ongimizda o‘z aksini topadi. Shunday qilib bu ikki hodisa-predmet in’ikosi va so‘z shakli obrazi o‘rtasida doimiy, mustahkam aloqa bog‘lanib, bir butun birlik yuzaga keladi: har safar narsa-hodisani ko‘rganda yoki sezganda ongimizda shu narsaning in’ikosi bilan birga, uning nomi bo‘lgan so‘zning qiyofasi ham gavdalanadi yoki, aksincha, so‘zni eshitganda shu so‘z qiyofasi bilan birga u atagan narsa-hodisaning in’ikosi,

obrazi tiklanadi. Ana shu ikki hodisa o‘rtasidagi doimiy aloqa, bog‘lanish leksik ma’no bo‘ladi.1 So‘z va uning ma’nosi birgalikda inson ongida tushunchani shakllantiradi. Demak, so‘zni tushunchaning tildagi belgisi (znak ponyatiya) deyish mumkin.2 Biroq so‘zning ma’nosi bilan tushuncha bitta narsa emas. Ma’no tushunchaning shakllanishida ishtirok etadi, unga poydevor bo‘lib xizmat qiladi, ammo so‘zning tarkibiy qismi bo‘lganligidan til birligi sanaladi, tushuncha esa, garchi so‘z va uning ma’nosi bilan aloqa bo‘lsa-da, inson tafakkurining mahsuli sifatida logik kategoriya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: 2004. 2-qism. – 116 b.
2. Mamatov N. Etimologik murakkab so‘zlar //O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1978. – №1. – B. 8-10.
3. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1972. – 784 b.
4. Norov, I. (2021, February). ONOMASTIC ANTHROPONYMS IN STARRY NIGHTS. In Euro-Asia Conferences (pp. 42-44).
5. Norov, I. (2023). DEFINITION OF ZOONYMS IN UZBEK ARTISTIC WORKS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(1), 1-6.
6. Yusupov, S. (2023). Use of Zonynyms in Works. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD).
7. Temirbekova, A. U. (2021). Emotional urges in karakalpak. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 189-193.